



## BOLALARDA UCHRAYDIGAN SEREBRAL FALAJ TURLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti*  
*Maxsus pedagogika:logopediya yo'nalishi talabasi*  
*Mo'minova Odinoxon Ulug'bek qizi*  
*Ilmiy rahbar: assitsent katta o'qituvchisi-*  
*Vazira Axmedova Tursunboyevna*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233622>

**Annotatsiya:** Bolalar serebral falaji- bosh miya harakatlantiruvchi zonalari va bosh miyadagi harakatni yaltiruvchi yllarni zararlanishi bilam kechadigan markaziy nerv sistemasi kasalligidir. Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq sistemasida erta organik buzilishlar kuzatiladi.

**Kalit szlar:** bolalar serebral falaji, harakatning buzilish, bola, ikki yoqlama gemipligiya, giperkinetik shakli, gemiparetik shakli, atonik-astatik shakli, spastik dipligiya

Bolalar serebral falajiga olib keladigan asosiy sabablar turlicha bo'lishi mumkin:infeksion kasalliklar, homiladorlik davridagi turli intoksikatsiya va jarohatlanishlar, surinkalik kasalliklar, ona va homila qonining rezus faktor va guruhi bo'yicha nomunosibliigi. Bundan tashqari homilaning erta yoki kech tug'ilishi , genetik faktorlar ham asosiy shartlardan bo'lishi mumkin.

Bolalar serebral falaji ona homilasining faoliyati buzilishi natijasida sodir bo'ladigan akusherlik jarohatlari,tug'ruq paytida kindikni bo'yin atrofidao'ralib qolishi natijasida ham paydo bo'lishi mumkin.Bunday xolatda bolaning markaziy nerv sistemasiga kislarod yetishmay qolib, bosh miya nerv hujayralarini zararlanishiga olib keladi.

Bolalar serebral falaji tug'ruqdan keyin neyroinfeksiyalarning kechishi va bosh miyani qattiq jarohatlanishidan ham kelib chiqishi mumkin. Bu bolalarda barcha harakat funksiyasini shakllanishida susayish va buzilishlar kuzatiladi. Boshni ushlab, o'tirish, turish funksiyalari qiyinchilik bilan yoki kechikib shakllanadi. Bolalar serebral falajida harakatning buzilishi asosiy nuqson hisoblanib, u o'ziga xos motor anamaliyani rivojlanishini ko'rsatadi, bu esa o'z navbatida bola asab-psixik funksiyasini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bolalardagi harakat buzilishlari o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish malakalarini egallanishini murakkabligi, ularni atrofdagi kattalarga qaram qilib qo'yadi, Bu ularga passivlikni, tashabbus ko'rsatmaslikni shakllantirib, motivatsion va irodaviy sohani buzilishiga olib keladi. Shunday qilib harakat buzilishlari bolaning psixik rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.Harakatning buzilish darajasidan qat'I nazar bu bolalarda hissiy-irodaviy soha, xulq, intellekt, eshitish va ko'rish izdan chiqqan bo'lib, talvasa sindromi kuzatiladi.

Bunday bolalarning ko'pchiligida aqliy mehnat qilishi buzilgan bo'lib, ular tez charchab qoladilar. Biror-bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyat bajarilayotganda ular bo'shshadilar tez jahllari chiqadi va berilgan topshiriqlarni qiyinchilik bilan bajaradilar.Ba'zi bolalarda charchash oqibatida harakatida bezovtalik paydo bo'ladi. Bola o'zicha har xil harakatlar qiladi, turli imo-ishoralarni ko'rsatadilar, so'lagi oqadi Bolalarning ixtiyoriy faoliyatida tartiblikka erishish katta qiyinchilik tug'diradi.

Serebral falajlik rivojlanishining ilk bosqichlarida miyaning harakatlanishni nazorat qiluvchi qismlariga jarohat yetishi sababli kelib chiqadi. Ko'p holatlarda bu jarohat homiladorlik davrida ro'y beradi. Ba'zan tug'ruq jarayonida va chaqaloqlik davridagi miya jarohatlari (kislarod yetishmovchiligi sababli asfksiya ya'ni bo'g'ilish, meningit, bosh qismining lat yeyishi yoki chayqalishi)da ro'y beradi. Har 1000 ta boladan 2 tasida serebral falajlik qayd etilgan.

**Serebral falaj bolalar quyidagi qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.**

-tananing qismlari yoki butunlay harakatlanishidagi;

-og'zaki bo'lmagan muloqot (yuz ifodasi har doim ham emotsialarni to'g'ri anglamasligi mumkin - ya'ni, bola kulayotgandek tuyilishi mumkin ammo aslida u juda hafa yoki g'amgin bo'lishi)dagi;



-muskullarda ixtiyorsiz harakatlar (spazmlar)dagi;

- ovqatlanishdagi;
- muskul bo'shligi yoki tarangligidagi;
- muvozanat va mo'ljaldagi;
- holat (gavdani istalgan holatga qo'yish va shu holatda saqlash qobiliyati)dagi;

Kasallikning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan harakat buzilishlari bolalar serebral falajida har xil namoyon bo'ladi. Adabiyotlarda bolalar miya falajining quyidagi shakllari qayd qilingan: *spastik diplegiya, spastik gemiplegiya, ikkilamchi gemiplegiya, paraplegiya, monoplegiya, atonik-astatik sindromi*. Yuqoridagi ta'sirlar natijada bolaning bosh miyasida turli xildagi jarohatlanishlar kelib chiqadi. Bosh miyadagi harakat markazlarining jarohatlanish darajasi, xususiyatlariga ko'ra bolaga harakat tayanch a'zolaridagi turli xildagi falajlanishlarni keltirib chiqaradi. Shunga ko'ra bu toifadagi nuqsonli bolalar quyidagicha klassifikatsiyalanadi:

- Ikki yoqlama gemiplegiya;
- Spastik dipligiya;
- Giperkinestik shakli;
- Gemiparetik shakli;
- Atonik-astatik shakli;

Ikki yoqlama gemiplegiya-bolalar serebral falajining eng og'ir shaklidir. Bu bolalarda inson uchun eng muhim bo'lgan funksiyalar: nutqiy, ruhiy va jismoniy holatlarda og'ir buzilishlar mavjud bo'ladi. Bunday shaklning tashqi ko'rinishdagi asosiy belgilari: bola tanasining bir qismi falajlangan bo'lib, asosan qo'l bukilgan holatda bo'ladi. Bu turdagi bolalarning nutqida *anatriya* yoki *dizartriya* kuzatiladi

Spastik dipligiya- bu eng ko'p tarqalgan shakli bo'lib, ma'lum bir og'ir kasallik yoki Littal sindromining ta'sirida kelib chiqadi. Spastik dipligiya shaklidagi bolalarda ikkilamchi nuqson sifatida ruhiy rivojlanishida sustlashishi kuzatiladi. 30-35% bu shakldagi bolalarda yengil darjadagi aqli zaiflik, 70%ida esa nutq nuqsonlari kuzatiladi. Spastik dipligiya turidagi falaj bolalarning oyoqlari qo'llariga nisbatan ko'proq serebral falajlik ta'siri ostida bo'lib, qo'llari bir oz beoxshov harakatlanadi. Oyoqlari bir-biriga yopishgan va ichkariga qaragan holatda bo'lishi kuzatiladi.

Gemiparetik shaklida bir tomonlama falajlik kuzatiladi. Ya'ni bolaning bir tomonlama oyog'i va qo'li falajlanadi. Bu bolalarning 25-35%ida nutq nuqsonlari kuzatiladi.

Giperkinestik shaklining kelib chiqishiga ilk vaqtdagi gemolitik kasalliklarning natijasida bilirubin ensefalopatiyasi sabab bo'ladi. Bu bolalarda harakatlanishdagi g'ayrioddiy harakatlar, qo'l va oyoqni harakatlanishidagi buzilishlar kuzatiladi. Bolalar serebral falajining giperkinestik shaklining tug'ma turida bolalar juda kech o'tiradilar, kamdan- kam hollarda 2-3yoshdan boshlab yura boshlaydilar, ko'p hollarda ular 4-7 yoshdan boshlab, xatto 9-12 yoshlarida mustaqil yurishlari mumkin. Bu bolalarning 90%ida giperkinetik dizartriya, 50%ida -RRS, 25-30%ida eshitishdagi buzilishlar kuzatiladi.

Atonik-astatik shakli- boshqa shakllarga qaraganda yengilligi bilan xarakterlanadi. Ularda harakat muvozanatidagi buzilishlar, reflekslar tonusidagi buzilishlar, 60-70%pseudobulbar dizartriya kuzatiladi. Ayrim hollarda serebral falajlikning aralash shakli ham uchrab turadi. Bu shaklda bolada spastik-giperkinetikholatlar yoki atetoz harakatlar (nazorat qilib bo'lmaydigan, g'ayri odatiyharakatlar) bilan mushaklar tonusining tarangligi bilan kelishi mumkin.

Bolalar serebral falajining dastlabki belgilari;

Bola tanasining qotib qolgan yoki bo'shashgan bo'lishi tug'ilishi bilan ko'zga tashlanishi mumkin. Ammo hamma vaqt ham buni sezishga imkon bo'lmaydi. Agarda bolada quyidagi holatlar kuzatilsa, tezda shifokorga olib borish lozim bo'ladi.

**Kutilmaganda tananing qotib qolishi.** Bunda bolaning orqasi bilan yotqizish yoki bag'riga bosish kerak bo'lganda tanasini egish qiyin bo'ladi.

**Tananing bo'shashishi.** Chaqaloqning boshi bo'shashgan bo'ladi va boshini ko'tara olmaydi. Ko'tarib turganda uning boshi va oyoqlari osilib turadi. Juda kam harakatlanadi.



**Sekin rivojlanish.** Bola odatdagidan sekin rivojlana boshlaydi. Tanasining bir qismidan boshqasiga nisbatan ko'proq foydalanishi mumkin. Masalan, ba'zi bolalar ikkita qo'lidan ko'ra bir qo'lidan foydalanadi.

**Sust ovqatlanish.** Emish va ovqatni yutish sust bo'ladi. Bola tili bilan sut va ovqatni og'zidan chiqarib tashlaydi. Og'zini yopishga qiynaladi.

N. N.Malofeev(1985-yilda)serebral falaji kichik yoshdagi maktab o'quvchilari tomonidan otlarni va fe'llarni nutqda ishlatish chastotasini o'rganib chiqdi. Shu narsa aniqlandiki ot, fe'l va old qo'shimchalar ularning butun lug'at boyligining 90%ni tashkil qilar ekan. Boshqa so'z turkumlari lug'atda yrtarli berilmagan. Bir xil so'zlarni ko'p martalab takrorlash, fe'llarni to'g'ri ayta olmaslik o'rinlari, ularning ma'nosini aniq ayta olmaslik bolalar uchun xarakterli xususiyatlar ekan.

Serebral falajlik kichik maktab yoshidagi bolalarda leksik-semantik buzilishlar L.B.Xalilova tomonidan 1984-yilda o'rganilgan edi. Bu o'rganishdan shu narsa aniqlandiki, bolalar ko'p so'zlarning ma'nosini bilmaydi, bir so'zning ma'nosini shu so'z talaffuziga o'xshashi bo'lgan boshqa so'zning ma'nosi bilan almashtirib yuborishadi, so'zning semantikasini unga sinonimi jihatdan munosabatda bo'lgan boshqa so'zlarning leksik ma'nosi bilan chalkashtirib yuboradi. Ba'zi o'rinlarda so'z tarkibida uning asosiy mazmunini tushinmay turib, konkret ma'nosinigina ajratib ko'rsatadi.

Serebral falaj bilan kasallangan bolalarda harakatning yo'qligi natijasida atrof-muhit bilan aloqasi chegaralangan. Shuning uchun ularda bog'langan nutqni rivojlantirishda qiyinchiliklar tug'iladi. Bog'langan nutq, fonolog, grammatik va leksik bilim va ko'nikmalar bilan birgalikda shakllantiriladi. Bunda asosiy o'rinda grammatik bilimlar egallaydi.

Bog'langan nutqni shakllantirish uchun miyaning assotsiativ funksiyasini rivojlantirish kerak. Bog'langan nutq frazali nutqqa qaraganda sekinroq rivojlanadi. Chunki sog'lom bola 3 yoshgacha frazali nutqni egallasalar, bog'langan nutqni 5 yoshgacha ham to'liq egallamagan bo'ladi.

D. B.Elkonkinning takidlashicha bolalarning alohida birikmalarni egallashi butun ma'lumotni egallashga qaraganda osonroq kechadi. M.M.Kolsova bu ko'rinishni mexanizmini bolalar alohida ibora, ya'ni taqlid asosida ham ishlab chiqishi mumkinligini, butun ma'lumot esa murakkab sistemani tuzishni talab etishda deb aytadi. Bu fiziologiyalar orqali sistemalarni turli darajasini tashkil qiluvchi ikkita mexanizm mavjudligi isbotlangan.

**Birinchi mexanizm-** bu shartli aloqa stereotip shakllarini asta-sekinlik bilan rivojlantirishdan iborat. Ularni shakllanishida miya postloq qismining quyi esa qismining assotsiativ sohalari yetakchi o'rinni egallaydi.Bolalar serebral falajida bu mexanizmni izdan chiqishi spastik diplesiya formalarida namoyon bo'ladi. Bu holatda boglangan nutqni tashkil qilishini ma'no darajasi izdan chiqadi, bolalap predmetlarni nomlashga qiynaladilar, so'zlarni unutib qo'yadilar, zarur so'zni kerakli joyda qo'llay anglamaydilar Bog'langan nutq soddalashib boradi. Bolalar murakkab shakllarini deyarli qo'llamaydilar, yodlab olgan fiziologik qurilmalarni ishlatadilar.

**Ikkinchi mexanizm** - shartli aloqalarni zudlik bilan ishlab chiqish. Bu peshana plastik sistemasining shartli aloqalarini tashkil qilishdan iborat bo'lib, bunda postloqning peshana assosatsiyalari yetakchi rol o'ynaydi. Ikkinchi darajadagi aloqalarni hosil qilinishi uchun nerv jarayonlarini ma'lum darajada yetilishi zarur bo'ladi. Bolalar Serebral falajida bu nuqson miyaning peshana bo'limlarini yetilishida to'xtab qolish yuz berganida sodir bo'ladi. Bu holatda nutqiy bayon qilish ma'lumot berishning ketma-ketligi, nutqiy bayon qilishni yo'nalganligi aziyat chekadi. Bundan tashqari giperkinetik shaklida bog'langan nutqning harakat-tonik buzilishlari kuzatilib, u nutqni ohangdorligini yo'qolishi, sekinlashuvi, iboradan iboraga o'tishidagi qiyinchiliklar bilan namoyon bo'ladi.

Xulosa:

Shunday qilib, serebral falaji bolalar leksikasini takomillashtirish va boyitishning spetsifikasi sifatida uni predmet-amaliy va o'yin faoliyati bilan uzviy bog'liq holda olib borishi, shuningdek, sensor funksiyalarini rivojlantirish va ularning korreksiyasini ongli faoliyati bilan



MAKTABGACHA TA'LIM TARAQQIYOTI, MUAMMO YECHIM VA  
ISTIQBOL" Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Andijon. 9-10 aprel  
2025-yil



chambarchas bog'liq holda tashkil qilishni ko'rsatish mumkin. So'z ustida uning til birligi sifatida va ayniqsa uning ko'p ma'noligini o'rganish haqidagi logopedik ishlarning muhim yo'nalishi katta ahamiyatga ega. Serebral falajlangan bolalarda grammatik bilim va ko'nikmalarni muvafaqqiyatli shakllantirish uchun ularning aqliy va nutqiy rivojlanishlariga kompleks tarzda yondashish kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**1. Logopediya:** darslik/ M.Y. Ayupova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. ~ T: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

**2. Mo'minova L.R.** Nutqni to'liq rivojlanmagan maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni logopedik tekshirish va o'qitish: (metod qo'llanma). - T: O'qituvchi, 1992-yil.